



№ 3, 2024

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI



ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 3, 2024

<http://buxpxti.uz>



ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES**
scientific and practical journal

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**
научно-практический журнал

№ 3(7) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRACIYASI XUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKACIYALAR AGENTLIGI

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

Ommaviy axborot vositasi davlat ruyxatidan utkazilganligi tuerisidagi
guvoxnoma

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145

СТПР (СОЛІҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ІДЕНТИФІКАЦІОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "В. НАҚШБАНД" МФУ HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома

№ 064916

Фаолият тури

Ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyatni amalga oshirish

Қўшимча маълумотлар

Қўшимча маълумотлар

Ommaviy axborot vositasining nomi	Ommaviy axborot vositasining tili	Ommaviy axborot vositasining turi
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	OZBEK, RUSS, ILINCLIZ	Jurnal

ТАРҚАТИЛИШ ХУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш хуудди ва шакли	Худуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Аънанавий



**BUXORO
PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR
INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal
3-son
Buxoro - 2024. - 304 b.

**Научный вестник
Бухарского
института
психологии и
иностранных
языков**
научно-практический
журнал
Выпуск 3.
Бухара - 2024. - 304 с.

Jurnal Buxoro psixologiya
va xorijiy tillar instituti
muassisligidagi nashr
hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
uchun bosmaxona
javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 15.05.2024
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 19
Buyurtma № 105. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston
Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46

Yuldasheva Mashxura Muzaffarovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotasiya. Ilmiy maqolada qadriyatlarga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida talabalarda tolerant fikrlashni takomillashtirish texnologiyalari ko'rib chiqilgan. Maqolaning ahamiyati shundan iboratki, tolerantlik tafakkuri tushunchalari ochib berilgan, bag'rikenglik tajribasini aniq maqsad yo'lida tashkil etishdan, ya'ni "o'zga" kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvchi shart-sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: Hamkorlik, bag'rikenglik ruhi, diniy va ijtimoiy muhit, muloqot va muomala, ko'ngilchanglik va xayrixohlik, hamdard, fikr-mulohazalar.

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВОЧНЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В научной статье рассматриваются технологии совершенствования толерантного мышления студентов на основе ценностно-ориентировочных подходов. Важность статьи состоит в том, что раскрываются понятия толерантного мышления, которое заключается в организации опыта толерантности к определенной цели, т. е. устойчивом создании условий, требующих совместных действий с окружающими нас людьми.

Ключевые слова: Сотрудничество, дух толерантности, религиозная и социальная среда, общение и этика, доверие и доброжелательность, сочувствие, обратная связь.

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING TOLERANT THINKING IN STUDENTS BASED ON VALUE-ORIENTED APPROACHES

Annotation. The scientific article discusses technologies for improving the tolerant thinking of students based on value-oriented approaches. The importance of the article lies in the fact that the concepts of tolerance and worldview of tolerance are revealed, it lies in organizing the experience of tolerance towards a specific goal, that is, the sustainable creation of conditions that require joint action with the people around us.

Key words: Cooperation, spirit of tolerance, religious and social environment, communication and ethics, fun and goodwill, empathy, feedback.

Maqolada bag'rikenglik tafakkurining asl mohiyati ochib beriladi. Jamiyat oldida kelgusi avlod yoshlarining tafakkuridagi mafkuraviy goyalarini o'zgartirish vazifasi paydo bo'ladi, zero, yoshlar kelajakda davlatimizning ma'naviy va aqliy qadriyatlari, madaniy an'alarini davom ettiradilar. Biroq, bag'rikenglik hozircha yosh avlod fel-atvorining tarkibiy qismiga aylangan emas. Shu boisdan ham bag'rikenglik ongini takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibida turishi bejiz emas.

Bu maqsadga erishmoq uchun jamiyatda psixologlar, pedagoglar, siyosatshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, faylasuflar va shu kabi olimlarning birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan ijobiy bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish borasida aniq maqsadni ko'zlovchi ta'lim strategiyasini amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu strategiya o'quv jarayoni orqali ta'lim jamoalarida xayrixohlik muhitini yaratish orqali irqchilik, shovinizm, ekstremizm, ksenofobiyaning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etishi, turli etnoslarga mansub bo'lgan talabalarni birlashtiradigan sohalarga (madaniy merosga, fan-san'at, davlatni rivojlantirishga qo'shiladigan hissaga; xarakterning ijobiy xislatlariga) e'tiborni kuchaytirish kerak. Boshqa kishilarga hurmat va ochiqko'ngillik bilan munosabatda bo'lish, bir-biridan farq qiladigan madaniy, diniy va ijtimoiy muhitlardagi kishilar hayotining xilma-xilligini tushunish ruhini singdirish zarur. Har qanday millat kishisi o'zini bimalol his qilishi, himoyalanganligi, "o'zga" qo'shni va dunyo bilan oshkora hamjihatlik qila olishini his qiladigan hamjihatlik muhitini yaratishga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik ruhini tarbiyalashda o'zimizning holatimizni, an'alarimiz va madaniyatimiz xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, odamlarning u yoki bu ko'zlangan anglashga va o'zimizga bog'liq bo'lmagan sharoitlarning xususiyatlarini e'tiborga olishga tayyorligini hisobga olib ish tutmoq

kerak bo'ladi.

Bag'rikenglikning asosi - avvalo shaxsning tajribasidadir. Shu sababli bag'rikenglik tarbiyasi, pedagogika nuqtai nazaridan, ijobiy bag'rikenglik tajribasini aniq maqsad yo'lida tashkil etishdan, ya'ni "o'zga" kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvchi shart- sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat.

Hamkorlikka tayyorlik ruhini shakllantirish jarayoni naqadar ertaroq boshlansa, shaxsning o'zaro harakat vaziyatlaridagi imkoniyatlari, o'rni va baholi qudrat yordam berishi zaruriyatini anglashi shu qadar tezroq sodir bo'ladi. Shu boisdan, go'dak tug'ilishi bilanoq uning ongini atrofdagi dunyo va kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga o'rgatishi lozim. Bu o'rinda oilaga birinchi darajali rol ajratiladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, oiladagi muhit: kattalarning o'zaro munosabatlari, fikr va mulohazalari, yurish-turishi va harakatlari jonli va ta'sirchan namuna bo'ladi. Go'dakning dastlabki tushunchasi bilan uning voyaga yetganda odamlarga xayrixohlik munosabati o'rtasida juda katta masofa borligi barchaga ayon bo'lgan holdir. Go'dak ulg'aya borgan sari uning bag'rikenglik tushunchasi ham o'zgarib, kengayib boradi, bu esa keng va tor ma'noda ijtimoiy-madaniy muhitdagi urf-odatlarini qanday o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi. Uning hayotda orttirgan tajribasi ko'pincha ko'ngilchanglik va xayrixohlikni rivojlantirishga yordam bermasligi mumkin. Inson uchun qaysi fe'l-atvor shakllari ustuvor bo'lishi har bir kishining shaxsiy xislatlari va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Modomiki, shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda bag'rikenglik qarashlarini rivojlantirishi, ularga har bir kishining or-nomusi, nafsoniyat chegarasi borligini tushuntirish, shu chegaradan o'tish, uni xafa qilishi va hatto ranjitishi muhimligini ta'kidlash kerak. Xalqlar va hatto odamlar o'rtasidagi adovat ko'pincha ana shu chegarani buzishdan kelib chiqadi. Odamlar turli madaniyatlarga mansub bo'lganliklari uchun ularning urf-odatlari ham har xil bo'ladi. Ijobiy va salbiy madaniyatlar yo'q, ularning har biri noyob va betakror bo'lib, go'dak aynan mana shularni uqib olishiga yordam berish kerak. Bag'rikenglik - o'zga kishilarning boshqacha ekanligini, tanasining rangi, ko'z tuzilishi bir-biridan farq qilishini hurmat qilish ham demakdir. Bag'rikeng bo'lish o'zgalar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish va ular ham yashash huquqiga ega ekanligini anglash demakdir.

Turli ta'lim va tarbiya muassasalari bu jarayonga qo'shiladilar, zero ularda millatlararo muomalaning ijobiy an'analariga asoslangan ijtimoiy- madaniy muhit vujudga keltirilsa, bu narsa turli millat talabalari o'rtasida bo'linish va ixtiloflarni bartaraf etishga ko'maklashadi hamda millatlararo muomala tajribasini shakllantirish, mojarolarni oldini olish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Talabalar bilan bag'rikenglik tarbiyasi sohasida olib boradigan ishda ta'lim muhiti, avvalo oliy ta'limning pedagog - o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mazkur murakkab masalada:

birinchidan, bag'rikenglik tarbiyasining mohiyati, mazmuni va ko'rinishlari to'g'risidagi ma'lumotlar,

ikkinchidan, ana shunday tarbiyaning imkoni bo'lgan vositalari, texnologiyalari to'g'risidagi tasavvur va

uchinchidan, pedagogning o'zi bag'rikeng bo'lishi (bu narsa alohida katta muammo!) juda zarurdir.

Bag'rikenglik - pedagogning vazifalari, ish mazmuni va xarakteri taqozo etadigan o'z kasbiga xos zarur fazilat bo'lmog'i kerak.

"Bag'rikenglik pedagogikasi" degan tushuncha endilikda tez-tez ishlatilmoqda. Bu tushuncha bag'rikenglik makonini, muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishni bildiradi. Bunda odamlar bir-birining ko'nglini tushunib, tashvishlariga hamdard bo'ladi, bir-biriga o'zaro hamnafaslik tuyg'usi bilan yashaydi. Pedagogikada o'qituvchining bu sohadagi o'z vazifasini bajarishi uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif qilish mumkin. Masalan, o'qituvchi:

-o'zini taqlid qilsa bo'ladigan namuna deb tushunishlarini anglaydi;

-muloqotni rivojlantirish va mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirib oladi hamda ulardan foydalanadi;

-muammoni hal etishga ijodiy yondashuvlarni rag'batlantiradi;

-ta'lim jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi amaliy faol harakatlari uchun, bu sohadagi shaxsiy yutuqlar uchun sharoit yaratadi;

- do‘q - po‘pisa yoki ashaddiy raqobatchilik fe‘l-atvori payini qirqadi;
- birgalikdagi faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va bu sohada qarorlar qabul qilishga talabalar va ota-onalarni jalb qilishga ko‘maklashadi;
- tanqidiy fikrlashga, o‘zgalarning nuqtai nazarini qadrlashga o‘rgatadi, ayni vaqtda nizoli masalalar xususida o‘z fikr-mulohazalarini aniq- ravshan ifodalab beradi;
- madaniy xilma-xillikni qadrlaydi, hamda madaniytafovutlarni va ularning hayotda namoyon bo‘lishini tan olishi uchun sharoit yaratib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Юлдашева, М. (2024). Формирование технологий гражданской позиции и толерантного мышления студентов на основе ценностных подходов. центр научных публикаций (buxdu.uz), 45(45).
2. Юлдашева, М. М. (2022). Тиббий педагогик йўналиш талабаларида миллий анъаналар асосида бағрикенгликни ривожлантириш. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 333-336
3. Muzafarovna, Y. M. (2022). Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an‘analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 80-84.
4. Yuldasheva, M. (2021). Ways to develop tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions. Scientific progress, 2(6), 1097-1102.
5. Yuldasheva, M. M. The development of tolerance on the basis of national ideas and traditions in student. International Journal for Advanced Research In Science & Technology (IJARST) ISSN, 2457-0362.
6. Юлдашева, М. (2020). Розвиток толерантності в історії східної культури. Науковий вісник Ізмаїльського державного гуманітарного університету, (46), С-158.
7. Yuldasheva, M. M. Development of tolerance in the history of eastern culture. SJIF Impact Factor, 7.
8. Yuldasheva, M. M. (2021). The development of tolerance and its efficiency based on national traditions. Middle European Scientific Bulletin, 8.
9. Muzafarovna, Y. M. (2020). Development of tolerance in the history of eastern culture. Chief Editor, 5(10), 7.
10. Yuldasheva, M. M. (2021). The development of tolerance and its efficiency based on national traditions. Middle European Scientific Bulletin, 8.



	<i>O'smirlar guruhida psixologik muhofaza motivatsiyasini tadqiq qilishning amaliy - metodik asoslari</i>
205	Жўраев Қўлдошжон Исматулло ўғли <i>Сущность и структура профессиональной компетенции</i>
208	Idiyeva Manuchehra Ikrom qizi <i>Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari</i>
213	Yuldashova Dilafruz Shavkatovna <i>Talabalarda o'quv motivatsiya rivojlanishining dinamik xususiyatlari</i>
217	Nazaraliyeva Marxabo Xayitboyevna <i>Bo'lajak ofiserlardagi tolerantlikning shaxs qadriyatlar timzimi bilan bog'liqligini o'ziga xos xususiyatlari</i>
13.00.00 – PEDAGOGIKA	
221	Narzullayev Nuriddin Homit o'g'li <i>Geografiya darslarida fanlararo bog'lanish metodikasidan foydalanish</i>
224	Husenova Aziza Sharipovna <i>Blum taksonomiyasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari</i>
229	Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна <i>Система организации непрерывной педагогической практики в начальных классах</i>
233	Бабаева Шоира Баймуродовна <i>Творческое образование - будущее учебного процесса</i>
237	Ashurova Marhabo Sayfulloyevna <i>Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida yangi usul maktablarida o'qitish imkoniyatlari</i>
242	Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna <i>Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quv-biluv topshiriqlarini tashkil etish muammolari</i>
246	Yusufzoda Shabnami Yunus <i>Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quv qurollaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish</i>
252	Yuldasheva Mashxura Muzaffarovna <i>Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkurini takomillashtirish texnologiyasi</i>
10.00.00 – FILOLOGIYA	
255	Ozodova Vasila Ikrom qizi <i>Gazeta nutqidagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari</i>
260	Shokirova Marxabo Sharifovna <i>O'zbek va ingliz tillarida rasmiy uslubda stilistik vositalarning foydalanishdagi o'xshashlik jihatlari</i>
266	Jahonova Nargiza Yunus qizi <i>Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashqlar va ularning tizimi</i>
271	Ozodova Madina Hamza qizi <i>O'quvchilar nutqiy madaniyatini tarkib toptirishda ona tili va o'qish savodxonligining ahamiyati</i>
275	Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna <i>2-sinf ona tili darsligi: fonetik va morfologik bilimlar tizimi</i>
283	Sharopova Zarnigor Tolib qizi <i>Boshlang'ich sinf ona tili savodxonligi darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish</i>
288	ОТЧЕТ ПО РЕЗУЛЬТАТАМ ПРОВЕДЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО КОНГРЕССА «ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ» 15 - 16 марта 2024 года



BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI
ILMIY-AMALIY JURNAL
№2(6) 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrda 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2024.
№ 2. - 308 b.**